

## **QIYOSIY PEDAGOGIKA FANIDAN O'ZLASHTIRILGAN BILIMLAR ASOSIDA DARSLIKLARNI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA XORIJYIY TAJRIBA TAHLILI**

**Mirzaxmatov Asadbek Yakubjon o'g'li**

*Qo'qon DPI magistranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada qiyosiy pedagogika fanidan o'zlashtirilgan bilimlar asosida darsliklarni takomillashtirish bo'yicha xorijiy tajriba tahlili hususida ayrim fikr mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek maqolada, zamonaviy darsliklarga qo'yiladigan didkatik talablar, ularning mazmuni, rasmiylashtirish qonun qoidlari hususida mulohazalar ham yuritilgan.

**Kalit so'zlar.** Qiyosiy pedagogika, darslik, xorijiy tajriba, rasmiylashtirish, tanqidiy fikrlash, ko'nikma, didaktik model.

**Абстрактный.** В статье представлены некоторые размышления по анализу зарубежного опыта совершенствования учебников на основе знаний, полученных в сравнительной педагогике. В статье также рассматриваются дидактические требования к современным учебникам, их содержание и правовые нормы их подготовки.

**Ключевые слова.** Сравнительная педагогика, учебник, зарубежный опыт, формализация, критическое мышление, умения, дидактическая модель.

**Abstract.** This article presents some observations on the analysis of foreign experience in improving textbooks based on the knowledge acquired in the field of comparative pedagogy. The article also discusses the didactic requirements for modern textbooks, their content, and the legal rules for their formalization.

**Keywords.** Comparative pedagogy, textbook, foreign experience, formalization, critical thinking, skills, didactic model.

**Kirish.** Qiyosiy pedagogika fanidan o'zlashtirilgan bilimlar asosida darsliklarni takomillashtirish bo'yicha xorijiy tajriba tahlili bir necha jihatlarni o'z ichiga oladi.

Birinchidan, turli mamlakatlarda qo'llaniladigan turli didaktik modellar va usullarni ko'rib chiqish muhimdir. Ushbu modellar bilimlarni uzatishga innovatsion yondashuvlarni, interfaol ta'lim usullarini va raqamli mediadan foydalanishni o'z ichiga olishi mumkin.

Qiyosy pedagogika orqali egallagan bilimlarga tayangan holda aytish mumkinki, asosiy nuqta darsliklarni talabalar ehtiyojlariga moslashtirishdir. Ko'pgina mamlakatlarda talabalarga yo'naltirilgan didaktikaga alohida e'tibor beriladi, bu esa individual ta'lim uslublari va tezligini hisobga olish imkonini beradi. Shuning uchun darsliklar nafaqat mazmunni, balki tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish ko'nikmalari va ijodiy ifodalash uchun joy ham berishi kerak.

Bundan tashqari, texnologiya integratsiyasi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Raqamli o'quv materiallari, interaktiv platformalar va multimedia kontentidan foydalanish darsliklarning jozibadorligi va samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, o'qitishning an'anaviy va zamonaviy usullarining uyg'unligi ko'pincha ta'limning samaradorligiga olib keladi.

Umuman olganda, xalqaro didaktik yondashuvlarni tahlil qilish darsliklarni takomillashtirish uchun qimmatli fikrlarni berishi mumkin. Ilg'or tajribalar va innovatsion texnologiyalarni o'z ichiga olgan holda, darsliklar doimiy o'zgaruvchan ta'lim landshafti ehtiyojlarini qondirish uchun yanada samaraliroq ishlab chiqilishi mumkin.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Darslik va o'quv majmualar ma'lum o'quv metodlari bo'yicha tuziladi. Darsliklarni tahlil qilish orqali ma'lum o'quv metodlarining belgilarini yaxshi tanib olish mumkin.<sup>1</sup> Metodlar konsepsiysi darslik va o'quv majmualarni yaratish bilan chambarchas bog'liq. Metodik yondashuvdan xabardorlik muvofiq darslik yoki o'quv majmuasini tanlash va uni chet tili darsida muqobil hamda samarali qo'llash imkonini beradi. Hozirgi zamonaviy va talabaga yo'naltirilgan ta'lim

---

<sup>1</sup> NEUNER, G., HUNFELD, H.: Methoden des fremdsprachlichen Deutschunterrichts, Eine Einführung, Universität Gesamthochschule Kassel, Kassel 1993, S. 16.

davrida o'qituvchining vazifasi mashg'ulot mazmuni va jarayonini talabalar guruhining ehtiyojlariga moslashtirishdir.<sup>2</sup>

O'quv majmuaning metodik tamoyillarini quyidagi jihatlarga ko'ra bilib olish mumkin:

1. Mavzularning matnlari: ular yoki tili o'r ganilayotgan mamlakatning kundalik hayotiga oid autentik matn turlari (mas. sharhlar, reklama, gazeta maqolalari) yoki ma'lum lisoniy hodisa (mas. yangi so'zlar yoki grammatikaga yo'naltirilgan matnlar)ni o'rgatish uchun mualliflar tomonidan tuzilgan matnlar bo'lishi mumkin.

2. Grammatikaning ifodalanishi: grammatik qoidalarning shakllantirilganligi, agar shunday bo'lsa u qaysi tilda, ya'ni ona tili yoki chet tilida ifodalanganligi. Grammatikaning mashqlar orqali berilganligi, bunda avval qoida, keyin mashq berilganmi yoki aksinchami? Ranglarni qo'llash, harflarni qoraytirish yoki tasviriy ifodalar yordamida vizual ko'mak berilganmi?

Ayrim darsliklarda grammatika butunlay tushib qoladi, bu ham darslik tayangan metodikaga ishora bolishi mumkin.

3. Mashqlar: darsliklarda ifodalangan mashqlarga qarab qaysi metod haqida gap borayotganini aniqlash mumkin, chunki har bir metodda o'quv maqsadlariga erishishning o'ziga xos ma'lum turdag'i mashqlari mavjud.

4. Mavzuning tuzilishi: har bir metod uchun dars bosqichlarining izchilligi xos bo'lib, har bir metod ma'lum mavzu tuzilishiga ega bo'ladi. Misol tariqasida ayrim darsliklarda yangi mavzuning matn bilan, ayrimlarida esa butunlay boshqacha dars jarayoni va izchilligiga ega bo'lgan grammatik qoidalar bilan boshlanganligini ta'kidlash mumkin.

5. O'r ganish bosqichlari: o'quv dasturining tuzilishi: darslikning mundarijasidanoq ko'pincha metodik konsepsiyanı bilib olish mumkin, chunki har bir

---

<sup>2</sup> JANÍKOVÁ, V.: Methodik und Didaktik des Unterrichts Deutsch als Fremdsprache, Masarykova univerzita v Brně, Brno 2001, S. 10

metod ma'lum o'quv maqsadlari va o'quv materiallarini afzal ko'radi va dars jarayoniga uyg'unlashtiradi<sup>3</sup>.

Quyidagi jadval darslik va u tuzilgan o'quv metodi orasidagi aloqani aniq tasvirlab beradi<sup>4</sup>:

O'quv metodlarida quyidagilar shakllantiriladi:	O'quv majmualarida metodlarni ayniqsa quyidagilar orqali bilib olish mumkin:
<p><b>- O'qitish maqsadlari</b></p> <p>NIMA o'rgatilishi kerak (o'quv materiallari)</p> <p>Inobatga olinishi kerak bo'lgan jihatlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Keng qamrovli ijtimoiy va pedagogik standartlar;</li> <li>- Ilm-fan xulosalari (tilshunoslik, mamlakatshunoslik, adabiyot/ va matnshunoslik)</li> </ul>	<p><b>- Matnlar</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Matn tanlash;</li> <li>- Matn tuzish.</li> </ul> <p><b>- Grammatika</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Tanlash va izchillik;</li> <li>- Tushuntirish va tasvirlash.</li> </ul> <p><b>- Mashqlar</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Mashq turlari;</li> <li>- Mashq bosqichlari;</li> <li>- Mashq ketma-ketligi.</li> </ul>
<p><b>- O'qitish jarayonlari / ta'lim tamoyillari</b></p> <p>QANDAY o'rgatilishi kerak (ta'lim tamoyillari)</p> <p>O'quv nazariyalari xulosalarini hisobga olgan holda quyidagilarga oid tavsiyalar shakllantiriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Mashg'ulotning bo'linishi;</li> </ul>	<p><b>- Mavzu/darsning tuzilishi</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Kirish;</li> <li>- Mashq/mustahkamlash;</li> <li>- Tizimlashtirish;</li> <li>- Qo'llash/tatbiq etish.</li> </ul> <p><b>- O'quv bosqichlari</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- o'quv materialining taqsimlanishi;</li> </ul>

<sup>3</sup> NEUNER, G., HUNFELD, H.: Methoden des fremdsprachlichen Deutschunterrichts, Eine Einführung, Universität Gesamthochschule Kassel, Kassel 1993, S. 16-17.

<sup>4</sup> [https://is.muni.cz/th/m0r5w/Lehrwerke\\_im\\_Deutschunterricht\\_und\\_Lehrwerkanalyse.pdf](https://is.muni.cz/th/m0r5w/Lehrwerke_im_Deutschunterricht_und_Lehrwerkanalyse.pdf) (murojaat sanasi 27.01.2025)

<ul style="list-style-type: none"><li>- Mashg'ulot shakllari;</li><li>- Mashg'ulot manbalari;</li><li>- Mashg'ulot tashkillanishi.</li></ul>	<ul style="list-style-type: none"><li>- o'quv maqsadlarining kesishuvi/uyg'unligi</li></ul>
--	---

**Tahlil va muhokama.** Rosemarie Bulmann o'z tadqiqotlarida Hans-Yurgen Krummning Stokholm mezonlar katalogidagi darslik tahlilini quyidagicha izohlagan<sup>5</sup>:

#### **A) darslik tuzilishi**

Albatta mavjud bo'lishi zarur:

- Matndan parcha;
- Ish daftari;
- Grammatika (o'qish kitobida yoki maxsus grammatika kitobida);
- Darslikda so'z boyligining mavjudligi, zarurat bo'lsa fonetik ma'lumotlar berilishi;
- Magnitofon/kasseta (hozirgi kunga kelib bularning o'rnini audio-manbalar yoki kompakt disklar egalladi)

Qo'shimcha tarzda quyidagilarning mavjudligi:

- O'qituvchi kitobi rasmlar, o'yinlar, testlar, qo'shiqlar va boshqa qo'shimcha manbalar;
- Tasviriy materiallar (diapozitivlar);
- Qo'shimcha ovozli materiallar (autentik (asliy) matnlar, qo'shiqlar);
- Topshiriqlar uchun javoblar yoki kalitlar;
- Testlar.

#### **B) namuna (shablonlar):**

- tashqi taqdimot jozibadorligi;
- darslar va darslik sahifalarining dizayni aniq ko'zga tashlanishi;
- grafik dizayn (rasmlar, chizmalar)ning motivatsiya berishi, ya'ni o'rganishga undashi;
- materiallarning yaxshi ishlanganligi va chidamliligi;

<sup>5</sup> Buhlmann Rosemarie. Lehrwerksanalyse und Lehrwerksbeurteilung. Hinweise für die Beratung bei der Lehrwerkswahl. Goethe-Institut, München, 2012. S. 49-53.

- rasm va matnlarning pedagogik jihatdan bir-biriga muvofiqligi.

### **C) o'quv rejaga muvofiqligi**

- o'quv majmuaning kontseptsiyasi o'quv rejaning talablariga mos kelishi (m: keng qamrovli o'quv maqsadlari, kommunikativ o'quv maqsadlari).

### **D) mundarija-mamlakatshunoslik**

O'quv majmuaga mos keladigan matnlar va ma'lumotlar mavjud ekan, quyidagilarni aniqlash maqsadga muvofikdir:

- a) faktik aniqlik;
- b) yoshga moslik;
- c) muvozanatlilik;
- d) muammoga yo'naltirilganlik;
- e) munozaraga chorlash;
- f) xilma-xil tuzilganlik;
- g) madaniy-qiyosiy jihatlar inobatga olinganligi.

### **1. O'quv majmuada uchraydigan odamlar**

- O'quvchilar o'zlarini taqqoslay oladigan shaxslarning borligi;
- O'quvchilar qiziqadigan shaxslarning borligi;
- O'quv majmuada erkak va ayol jinsidagi shaxslarning teng nisbatda uchrashi, ya'ni gender tengligining inobatga olinganligi;
- Rolga mansub stereotiplardan voz kechilganligi (masalan, ayol faqat uy bekasi sifatida);

### **2. O'quv majmuadagi kundalik hayot**

- Shahar va qishloq turmush tarzining tanishtirilganligi;
- Oila, maktab, ish va bo'sh vaqtdagi hayotning mavzulashtirilganligi, ya'ni o'quv majmuada shu mavzularga oid matn va mashqlarning mavjudligi;
- Turli ijtimoiy qatlamlardan chiqqan odamlar hayoti tasvirlanganligi;
- Barcha nemiszabon mamlakatlardagi kundalik hayotning aks ettirilishi.

### **3. Geografiya va iqtisodiy hayot**

- o'quv majmuada geografiya va iqtisodiyotni tasvirlash uchun kartochkalar va suratlarning borligi (landshaftning xilma-xilligi, sanoat va hkz.);

#### **4. jamiyat** (siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar)

- nemiszabon mamlakatlarning turli siyosiy tizimlari tanishtirilganligi;

- nemiszabon mamlakatlarning turli iqtisodiy tizimlari va turmush sharoitlarining aks etganligi;

- o'quv majmuada dolzarb mavzularga murojaat qilinganligi, masalan: ekologiya va atrof-muhit masalalari, mehnat dunyosi (ishsizlik), kompyuter jamiyati, nemiszabon mamlakatlar va vatanimiz orasidagi savdo aloqalari kabi mavzular.

#### **5. Madaniyat**

- bayramlar, urf-odat va an'analarning tanishtirilganligi;

- san'at, musiqa, teatr, film va shu kabilarning yetarli darajada tahlil qilinganligi;

- yoshlar va muqobil madaniyatga murojaat qilinganligi.

#### **6. Adabiyot**

- o'quv majmuada badiiy matnlar (she'rlar, novellalar - qisqa hikoyalar)ning ham tasvirlanganligi;

#### **7. Tarix**

- muhim tarixiy ma'lumotlarning ham berilganligi (masalan, nemiszabon mamlakatlar va vatanimiz orasidagi munosabatlarga ta'sir qilgan ma'lumotlar).

#### **8. O'z mamlakatining tasviri**

O'quv majmuaning quydagilarga imkoniyat yaratishi:

a) nemiszabon mamlakatlarning vatanimizga bo'lgan o'ziga xos munosabatlarini muzokara qilish;

b) o'z mamlakatimizdagi munosabatlar, masalan, urf-odat va an'analar, iqtisodiyot, ijtimoiy xavfsizlik masalalarini nemischa ifodalash.

**Xulosa.** Nihoyat o'quv materialini o'quvchilar qanday tushunayotganligini so'rash kerak.

O'quvchilar nuqtai nazaridan o'zingizga quydagi savollarni bering:

- jami o'ta murakkab mazmun, til yoki topshiriqlardan zo'riqib ketmayapmanmi?
  - mazmun, til yoki topshiriq bilan bog'liq talablar o'ta kam emasmi (hech qanday qiyinchilik yo'q, zerikarli)?
  - mundarija, matn turlari, mashqlar yetarlicha xilma-xilmi?
  - mavzular mustaqil qayta ishlash uchun imkoniyat va turtki beradimi?
  - Shaxsiy nuqtai nazarimni tilda ifodalash uchun o'z fikr va tajribalarimni qo'shishga imkonim bormi? Bu o'quv jarayoniga ta'sir ko'rsatadimi (masalan, mavzular, matnlar tanlovi borasida)?
  - Men uchun o'quv maqsadlari va o'quv bosqichlari tanishmi?
  - Materialni mustaqil ravishda o'zlashtira olamanmi va bevosita o'qituvchi yordamisiz nuqtalar o'rmini to'ldira olamanmi?
  - O'quv jarayonida ishtirok etamanmi?<sup>6</sup>
- Ushbu mezonlar yordamida nemis tili xorijiy til sifatida darslik va o'quv majmualari turli jihatlariga ko'ra tahlil qilinishi mumkin.

---

<sup>6</sup> Krumm H.J. Stockholmer Kriterienkatalog in Kast B/Neuner.G (Hrsg.) Zur Analyse, Begutachtung und Entwicklung von Lehrwerken. Berlin, München, Leipzig, Wien, Zürich, New York, 1998. S.100-105.